

BASKETBOL SPORTIDA HAKAMLIK TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI**Paluanyazova. N**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o'qituvchisi.

Avezbaev. A

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15762061>

Annotatsiya. Ushbu mavzu "Basketbol sportida hakamlik texnikasini rivojlantirish asoslari" basketbol o'yinlarida hakamlik faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan. Mazkur ishda hakamning professional tayyorgarligi, o'yin qoidalarini to'g'ri qo'llash, qaror qabul qilish tezligi va aniqligi, pozitsion harakatlanish texnikasi hamda kommunikatsion ko'nikmalari asosida texnik tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari yoritiladi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, videokuzatuvlar va simulyatsion mashg'ulotlardan foydalanish orqali hakamlik texnikasini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot basketbol musobaqalarida adolatli va samarali boshqaruvni ta'minlash, shuningdek, yosh hakamlarni tayyorlashda metodik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Basketbol, hakamlik, hakamlik texnikasi, sport hakami, qaror qabul qilish, pozitsion harakatlanish, kommunikatsiya, texnik tayyorgarlik, videokuzatuv, simulyatsiya, zamonaviy texnologiyalar, sport boshqaruvi.

Annotation. The topic "Fundamentals of Developing Officiating Techniques in Basketball" is aimed at an in-depth study of the theoretical and practical aspects of refereeing in basketball games. This work highlights the ways to improve the technical training of referees based on their professional preparation, proper application of game rules, decision-making speed and accuracy, positional movement techniques, and communication skills. Furthermore, the study analyzes the potential of using modern technologies, video analysis, and simulation-based training to enhance officiating techniques. The research can serve as a methodological basis for ensuring fair and effective management of basketball competitions and for the training of young referees.

Keywords: Basketball, officiating, refereeing techniques, sports referee, decision-making, positional movement, communication, technical training, video analysis, simulation, modern technologies, sports management.

Kirish: Hozirgi zamon sport turlari orasida basketbol o'zining jadal sur'atda rivojlanishi, tomoshabopligi va xalqaro miqyosda keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Sport musobaqalarining adolatli va sifatli tashkil etilishi esa, eng avvalo, hakamlik faoliyatiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, basketbol kabi tezkor qarorlar talab qiladigan sport turida hakamning malakasi, texnik tayyorgarligi va harakatlanish madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Basketbol hakami nafaqat o'yin qoidalarini mukammal bilishi, balki o'yindagi holatlarni tez va aniq baholay olishi, har bir qarorini o'z vaqtida va asosli qabul qila olishi kerak. Shu bilan birga, u zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'z ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim.

Mazkur mavzuda basketbol sportida hakamlik texnikasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari o'rganiladi. Hakamlikda pozitsion joylashuv, qaror qabul qilish tezligi, kommunikatsion malaka, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik kabi muhim omillar tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari sport hakamlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning malakasini oshirish va musobaqalar sifati va adolatliligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Dolzarbliigi: Bugungi kunda sport musobaqalarining sifati va natijalarining adolatli chiqishini ta'minlashda hakamlilik faoliyatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, basketbol kabi yuqori tezlikda kechadigan, ziddiyatli holatlarga boy sport turida hakamning professional darajasi va texnik saviyasi o'yinning umumiy natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Basketbol o'yinlarida har bir qarorning tezkor va aniqlik bilan qabul qilinishi, hakamning maydondagi harakatlanishi, pozitsiyasini to'g'ri tanlay olishi, o'yinchilar bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi — bularning barchasi hakamlilik texnikasining asosiy tarkibiy qismlaridir. Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab holatlarda hakamlar texnik kamchiliklar tufayli noto'g'ri qarorlar qabul qilmoqda. Bu esa sportchilar, murabbiylar va tomoshabinlar orasida norozilik keltirib chiqaradi.

Shu boisdan basketbol sportida hakamlilik texnikasini chuqur o'rganish, zamonaviy yondashuvlar asosida uni rivojlantirish, ilg'or tajribalarni joriy etish zarurati dolzarb masalaga aylangan. Mavzuning dolzarbliigi shundan iboratki, u nafaqat hakamlar tayyorgarligini yaxshilashga, balki sport musobaqalarining sifati va adolatliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Basketbol sportida hakamlilik texnikasini takomillashtirish, zamonaviy uslublar asosida hakamlarning professional tayyorgarligi va qaror qabul qilish malakasini oshirish yo'llarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari: Basketbol sportida hakamlilik faoliyatining nazariy asoslarini o'rganish. Hakamlilik texnikasining asosiy elementlarini (pozitsion joylashuv, qaror qabul qilish, muloqot) tahlil qilish. Zamonaviy texnologiyalar va uslublar yordamida hakamlilik mahoratini oshirish yo'llarini aniqlash. Amaliyotda uchraydigan muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini taklif etish.

Sport musobaqalari sportchilarning malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular jismoniy, texnik, taktik, ruhiy, funksional tayyorgarliklarni aniqlashga va takomillashtirishga yordam beradi hamda qilinayotgan mehnatni natijasini ko'rsatadi. To'g'ri va yaxshi tashkil qilingan musobaqalar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki musobaqalar faqat jismoniy sifatlargaagina (kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik va egiluvchanlik) emas, balki ruhiy-psixologik sifatlarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musobaqa davrida sportchilarning tashkilotchilik, o'zini tuta bilishlik, jamoa maqsadini o'z maqsadidan yuqori qo'ya olishlik kabi yana bir qancha sifatlari ham takomillashadi. Musobaqalarda qatnashuvchilar awalombor, tajriba almasha-dilar, trenerlar esa yangi trenirovka usullarini sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, sport musobaqalari sport turlarini targ'ib qilishning eng yaxshi va hammabop shakllaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda musobaqalar o'tkazilishi tufayligina sport o'yinlaridan basketbol, basketbol, futbol, gandbol, tennis va bosh-qalar ommaviylashdi. Demak, musobaqasiz sportning bo'lishi mumkin emas.

Musobaqalarning turlari Musobaqalar qo'yilgan vazifalargaagina qarab: birinchiliklar yoki chempionatlar, kubok musobaqalari, qisqartirilgan, baravar-lashtirilgan, klassifikasiya va saralash musobaqalari, match va o'r-toqlik uchrashuvlar kabi turlarga bo'linadi. Birinchiliklar yoki chempionatlar eng katta musobaqalardan bo'lib, ularda kollektiv, tuman, shahar, respublika chempioni degan faxriy unvon beriladi. Ular yilda bir marta o'tkaziladi. Birinchilik g'oliblari oltin, kumush va bronza medallari bilan mukofotlanadilar.

Kubok musobaqalari "yutkazgan chiqib ketish" prinsipida o'tkaziladi. Bu musobaqalar ko'p vaqt talab qilmaydi va ko'p qatnashuvchilarni jalb qilish imkonini beradi.

Qatnashuvchilaming tayyorgarligi har xil bo'lganligi uchun kuchliroq jamoalaming uchrashuvlarini oxirgi bosqichlarga mo'ljallash kerak. Qisqartirilgan musobaqalar (blis tumirlar)da ko'p jamoalar qatnashganlari holda bir kunda o'tkaziladi. Buning uchun o'yin vaqti 30 minutgacha qisqartiriladi. Bunday musobaqalar mavsumning ochilishiga yoki bayramlarga bag'ishlab o'tkaziladi. Baravrlashtirilgan musobaqalar tayyorgarligi har xil bo'lgan jamoalar orasida o'tkaziladi. Jamoalaming qiziqishini saqlab qolish uchun kuchsizrok jamoaga oldindan yoki uchrashuv tamom bo'lgandan so'ng qo'shimcha ochkolar beriladi. Klassifikasiya musobaqalari jamoalaming (o'yinchilaming) tayyorgarligini aniqlash, sport klassifikasiyasining razryad talablarini bajarish maqsadida o'tkaziladi. Saralash musobaqalari tayyorgarligi eng yaxshi jamoalarni (o'yinchilarni) aniqlab, keyingi yirik musobaqalarda qatnashtirish uchun o'tkaziladi. Match uchrashuvlari musobaqalar kalendarida ko'zda tutilgan va an'anaviy hisoblanadi. Uchrashuvlarda ikki va undan ortiq jamoalar qatnashishi mumkin. Musobaqalarning bunday turlari alohida shaharlar, viloyatlar hamda chet davlatlar orasida do'stlik munosabatlarining rivojlanishiga yordam beradi. o'rtoqlik uchrashuvlari bo'lajak musobaqalarga va sport trenirovkasining ba'zi bir bo'limlari bo'yicha tayyorgarlikni aniqlash maqsadida ayrim jamoalar o'rtasida o'tkaziladi.

Musobaqa o'tkazish tizimlari Musobaqa paytida hamma jamoalarga g'alaba uchun kurashishga bir xil sharoit yaratib berish va g'oliblarni haqiqiy natijalar usosida aniqlash kerak.

Musobaqalarni o'tkazish tizimlari har xil bo'lishi mumkin. 1-ekin u yoki bu tizimlarni tanlashda quyidagi sharoitlarni hisobga olish lozim:

- a) musobaqa oldida turgan vazifalarni;
- b) musobaqa o'tkazish sharoitlarini;
- v) qatnashuvchi jamoalarning sonini;
- g) o'tkazilayotgan musobaqaning turlarini;
- d) qatnashuvchilarning sport tayyorgarligi va ishlab chiqarishda bandligini;
- e) musobaqa o'tkazish joylarining bandligi, soni va hududiy joylashuvini.

Umuman olganda sport o'yinlari musobaqalarini o'tkazish amaliyotida asosan ikkita (chiqib ketish va aylanma) tizim qo'llaniladi. Bu ikki tizimning qo'shilishi natijasida uchinchi - aralash tizim paydo bo'ladi.

Chiqib ketish tizimi bo'yicha musobaqalar o'tkazish Bu tizim bo'yicha musobaqalar o'tkazilganda uchrashuvda yutqazgan jamoa keyingi uchrashuvlarda qatnashmaydi. Natijada musobaqa oxirida biror marta ham yutqazmagan jamoa qoladi. Ana shu jamoa g'olib hisoblanadi.

Oxirgi (final) uchrashuvda g'olib jamoaga yutqazgan jamoa ikkinchi hisoblanadi. Bu tizimning afzalligi shundaki, agar 64 jamoa bilan aylanma tizim bo'yicha musobaqao'tkazish uchun 63 kalendar kuni talab qilinadigan bo'lsa, chiqib ketish tizimsi bo'yicha esa faqat 6 kalendar kunining o'zi kifoya. Lekin u bir qator kamchiliklarga ham ega. Bu tizim barcha jamoalarning haqiqiy o'yinlarini aniqlash imkonini bermaydi va shu usul qo'llanilganda aksariyat jamoalar juda kam uchrashuvlarda qatnashadi. Birorta kuchli jamoa birinchi kunning o'zida mag'lubiyatga uchrab, musobaqalardan chiqib ketishi mumkin. Chiqib ketish tizimi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda ham- ma uchrashuvlar biror jamoaning g'alabasi bilan tugallanishi lozim. Bu tizim ikki variantdan iborat: a) bir marta mag'lubiyatga uchragandan keyin chiqib ketish; b) ikki marta mag'lubiyatga uchragandan keyin chiqib ketish (ikkinchi variant juda kam hollarda qo'llaniladi).

Bir marta mag'lubiyatga uchrab chiqib ketish usuli bilan o'tkaziladigan musobaqa uchun quyidagicha kalendar tuziladi. Av- val musobaqada qatnashayotgan jamoalarning uchrashuv tartibini belgilaydigan jadval tuziladi. So'ng qur'a yordamida har bir jamoaning jadvaldagi tartib nomeri aniqlanadi. Agarda qatnashayotgan jamoalarning soni $2n$ (4, 8, 32, 64 va boshqa)ga teng bo'lsa, u holda hamma jamoalar musobaqaga birinchi kalendar kunida qatnashadilar. Birinchi turda jadvalda yonma- yon turgan jamoalar uchrashadi: birinchi jamoa ikkinchi bilan, uchinchi jamoa to'rtinchi jamoa bilan va h.k.

Ikkinchi turda birinchi turning g'oliblari qatnashadilar: birinchi juftning g'olibi ikkinchi juft g'olibi bilan uchrashadi va h.k. Bir mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish usuli (olimpiya usuli deb ham ataladi) bilan musobaqa o'tkazish tashkil qilinsa va bunga necha kun kerakligini aniqlash lozim bo'lsa, qo'yidagi qoidani qo'llash mumkin. Qatnashuvchi jamoalar soni ikkinchi darajasiga ($2n$) teng bo'lsa, ya'ni 22, 23, 24, 25, 26 va hokazo, darajani ko'rsatib turgan son (daraja ko'rsatkichi) necha bo'lsa, shuncha kun kerak bo'ladi.

Daraja ko'rsatkichi musobaqa necha turdan iborat ekanligini ham bildiradi. Misol uchun: 8 ta jamoa (sakkiz ikkinchi darajasi, ya'ni 23 ga teng) ishtirok etadigan musobaqa 3 turdan iborat bo'lib, uch kun davom etadi. Agar qatnashuvchi jamoalarning soni 2^n darajasidan ortiq bo'lsa, u holda daraja ko'rsatkichiga 1 sonini qo'shish bilan musobaqa necha turdan iborat ekanligini hamda necha kun kerakligini aniqlab olinadi. Misol uchun: 10 ta jamoa ishtirokidagi musobaqa g'olibini aniqlash uchun 4 kun kerak bo'ladi. Nega deganda, 10 ikkinchi darajasi - 23 dan, ya'ni 8 dan ortiq, shuning uchun yuqorida aytganimizdek daraja ko'rsatkichiga (bu yerda uchga) 1 sonini qo'shamiz va hosil bo'lgan son (bu misolda $3+1=4$), ya'ni musobaqa necha turdan iborat ekanligini va necha kun kerakligini anglatadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganlarimizni quyidagi formulalar orqali ifodalasa bo'ladi:

$$a) 2^n = a \Rightarrow n = t, \text{ ya'ni } 23 = 8 \Rightarrow 3 = 3 \quad b) 2n < a \Rightarrow n + 1 = t, \text{ ya'ni } 23 < 10 \Rightarrow 3 + 1 = 4$$

Eslatma: a - musobaqada ishtirok etadigan jami jamoalarning soni n - daraja ko'rsatkichi t - turlar va kunlar soni. Ushbu formulalarga asoslanib quyidagi jadvalni tuzish mumkin.

Musobaqada ishtirok etadigan jamoalarning soniga qarab musobaqa necha turdan iborat ekanligini va musobaqa qancha kun davom etishini aniqlash jadvali

Jamoalar soni	Turlar va kunlar soni						
	1	2	3	4	5	6	7
2	+						
3-4		+					
5-8			+				
9-16				+			
17-32					+		
33-64						+	
65-128							+

Aylanma tizim Musobaqalar aylanma tizimda o'tkazilganda hamma jamoalar bir-birlari bilan bir, ikki yoki undan ham ko'proq uchrashib chiqishlari mumkin. Pirovardida butun musobaqa davomida eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib chiqadi. Aylanma tizim eng takomillashgan tizim hisoblanadi. Chunki u faqat birinchi o'rinni egallagan jamoanigina aniqlab qolmay, balki musobaqada qatnashayotgan hamma jamoalarning tayyorgarligiga qarab munosib o'rinlarni aniqlab beradi.

Bu tizim qatnashuv- chilardan katta tayyorgarlikni va basketbolchilarning butun musobaqa davrida yuqori sport formasida bo'lishlarini talab qiladi. Aylanma tizimning salbiy tomoni - musobaqa o'tqazish uchun ko'p vaqt talab qilishidir.

Vaqtdan yutish uchun jamoalarni bir nechta guruhlariga bo'lish mumkin. Ushbu tizim bo'yicha musobaqalarda jamoalar bir-birlari bilan bir martadan uchrashtirilib, musobaqa tur yoki tumir sifatida o'tka- zilishi mumkin.

Aylanma tizimsi bo'yicha kalendar tuzishda musobaqalar o'tkazish uchun kerakli kalendar kunlari qatnashuvchi jamoalarning soni juft bo'lgan paytda - musobaqa uchun kerakli kalendar kun- larining soni jamoalarning sonidan bitta kam bo'ladi, toq bo'lganda - teng bo'ladi.

Aylana tizimsi bo'yicha kalendar ikki usulda tuzilishi mumkin: takomillashgan va soddalashtirilgan.

Birinchi usulda awal toq sonli jamoalar uchun jadval tayyorlanadi. Jamoalarning soni juft bo'lganda oxirgi son hisoblanmay turiladi. Awal kalendar kun- larining soniga teng vertikal chiziqlar chiziladi. Birinchi chiziqning tepasiga birinchi nomer, shu chiziqning atrofiga esa qolgan nomerlar soat strelkasining harakati bo'ylab joylashtiriladi. Boshqa vertikal chiziqlar orasiga nomerlar ketma-ket «ilon izi» shaklida yozib chiqiladi. 5-6 jamoa uchun o'yin kalendari quyidagicha tuziladi:

Soddalashtirilgan usul tur va tumir musobaqalarining kalen- darini tuzishda qo'llaniladi.

Musobaqaga ishtirok etadigan koman- dalarning soni toq bo'lgan paytda shartli ravishda «0» nomeri qo'shiladi. Qaysi bir komanda «0» bilan juftlashsa, o'sha kuni u musobaqalarda qatnashmaydi (dam oladi).

Masalan, 7 ta jamoa uchun o'yin kalendari quyidagidek tuziladi:

I kun	II kun	III kun	IV kun	V kun	VI kun	VII kun
1-0	1-7	1-6	1-5	1-4	1-3	1-2
2-7	0-6	7-5	6-4	5-3	4-2	3-0
3-6	2-5	0-4	7-3	6-2	5-0	4-7
4-5	3-4	2-3	0-2	7-0	6-7	5-6

Jamoalarning soni juft bo'lgan paytda «0» o'miga oxirgi juft son yoziladi. Yuqorida keltirilgan misolda «8» raqami yoziladi. Soddalashtirilgan usul bilan musobaqalarning kalendarini tuzishda «1» raqami har doim o'z o'mida siljmay turadi, qolgan raqamlar esa soat strelkasining harakatiga qarama-qarshi tomoniga bir pog'ona siljishi oqibatida keyingi kun uchrashadigan jamoalarni bir-biri bilan juftlab qo'yadi.

Aylanma tizim bilan musobaqa tashkil qilinganda uchrashuvlar sonini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin. $(a - 1) \cdot a : 2 = x$ a - komandalar soni x - uchrashuvlar soni Misol uchun, musobaqada 5 ta yoki 6 ta jamoa ishtirok etganda nechta uchrashuv bo'lishini aniqlash: $(a - 1) \cdot a : 2 = x$; $(5 - 1) \cdot 5 : 2 = 4 \cdot 5 : 2 = 20 : 2 = 10$ Musobaqada 5 ta jamoa qatnashganida o'nta uchrashuv bo'lar ekan; $(a - 1) \cdot a : 2 = x$; $(6 - 1) \cdot 6 : 2 = 5 \cdot 6 : 2 = 30 : 2 = 15$ Oltita jamoa ishtirok etgan musobaqada o'n beshta uchrashuv bo'lar ekan. Aralash tizim. Musobaqalar aralash tizimsi bo'yicha o'tkazil- ganda uchrashuvlarning bir qismi chiqib ketish, ikkinchi qismi esa aylanma tizimsida o'tkaziladi.

Bu usul musobaqalarda qatnasha- yotgan jamoalarning soni ko'p hamda ular bir-birlaridan hududiy jihatdan uzoqda joylashganlarida qo'llaniladi. Bunday holda hamma jamoalar hududiy guruhlariga bo'linadi. Musobaqalar guruhlarida chiqib ketish tizimsi bo'yicha o'tkazilsa, final musobaqalari esa aylanma tizim bo'yicha o'tkaziladi, va aksincha, o'tkazilishi mumkin.

Uchrashayotgan jamoalarning sport kiyimlari bir xil rangda bo'lib qolsa, mezbolar formalarini almashtirishlari shart. Agar musobaqa neytral maydonda o'tkazilayotgan bo'lsa, u holda kalendarida birinchi bo'lib ko'rsatilgan jamoa sport formasini almashtirishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar: Basketbol sportida hakamlar texnikasining rivojlanishi o'yinning adolatli va sifatli o'tishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida hakamlarning pozitsion harakatlanishi, qaror qabul qilish tezligi va aniqligi, kommunikatsion ko'nikmalari, shuningdek, o'yin qoidalarini mukammal bilishi hakamlar texnikasining asosiy elementlari ekanligi aniqlangan. Zamonaviy texnologiyalar — videoanaliz, simulyatsion treninglar va statistik monitoring hakamlarning malakasini oshirishda samarali vositalar sifatida ko'rsatildi. Shuningdek, amaliyotda uchraydigan muammolar, jumladan pozitsion xatolar, qaror qabul qilishdagi kechikishlar va signal berishdagi noaniqliklarni bartaraf etish uchun tizimli tayyorgarlik zarurligi ta'kidlandi.

Basketbol hakamlarini tayyorlashda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratish.

Hakamlar texnikasini rivojlantirish uchun muntazam videoanaliz va simulyatsion mashg'ulotlar tashkil etish.

Qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshirish maqsadida testlar va vaziyatli treninglarni joriy etish.

Hakamlar o'rtasida samarali kommunikatsiya va jamoaviy ishni kuchaytirish uchun maxsus treninglar o'tkazish.

Yosh hakamlarni tayyorlash jarayonida zamonaviy texnologiyalar va psixologik tayyorgarlik usullaridan keng foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, S. (2018). **Basketbol o'yinining nazariy asoslari**. Toshkent: Sportchi nashriyoti.
2. Karimov, B., & Islomov, M. (2020). **Sport hakamligi: nazariya va amaliyot**. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Petrov, A. (2017). *Modern approaches to basketball officiating*. Journal of Sports Science, 12(3), 45-52.
4. Johnson, T., & Lee, S. (2019). *The role of technology in improving refereeing decisions in basketball*. International Journal of Sports Technology, 7(2), 101-115.
5. O'zbekiston Basketbol Federatsiyasi. (2022). **Basketbol qoidolari va hakamlar texnikasi bo'yicha qo'llanma**. Toshkent.
6. Smith, J. (2021). *Communication skills for sports referees*. Sports Management Review, 9(1), 30-40.
7. Hamidov, R. (2019). **Sport psixologiyasi va hakamlarlik**. Toshkent: Ilm-fan.